

Keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida o'tkazilgan tadbirlar

Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tomonidan BMT Aholishunoslik jamg'armasining O'zbekistondagi vakolatxonasi (UNFPA) ko'magida "Zo'rvonlikka qarshi kurashni institusionalizatsiya qilish" mavzusiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya o'tkazildi.

Tadbirda Oliy Majlis Senati Raisi – Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi raisi Tanzila Narbayeva, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijro etuvchi apparatining Kommunikatsiyalar va axborot siyosati bo'yicha sho'ba mudiri Saida Mirziyoyeva, Bosh vazir o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi Zulayxo Maxkamova, BMT Bosh kotibi o'rinbosari – BMTning Jenevadagi vakolatxonasi Bosh direktori Tatyana Valovaya, BMT doimiy koordinatori vazifasini bajaruvchi va YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamedzade, Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Charlotta Adrian, tegishli davlat organlari va nodavlat sektor vakillari, xalqaro tashkilotlar ekspertlari, shuningdek, OAV vakillari va blogerlar ishtirok etdi.

Konferensiyada gender zo'rvonlikka qarshi kurashish bo'yicha idoralar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish zarurati, xotin-qizlar huquqlarini institusional himoya qilishda xotin-qizlar masalalari bo'yicha qo'mitaning roli, huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan ayollarni himoya qilish mexanizmlari kabi dolzarb mavzular muhokama qilindi.





Gender faollarini qo'llab-quvvatlash hamda gender stereotiplarini bartaraf etish masalalari muhokama qilindi.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi hamda BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida "Gender faollarini qo'llab-quvvatlash hamda gender stereotiplarini bartaraf etish orqali O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash" mavzusida davra suhbatini bo'lib o'tdi.

Unda Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi, Moliya vazirligi, Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi delegatsiyasi, Latviya Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi, fuqarolik jamiyati institutlari, vazirlik va idoralar hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Ta'kidlash joizki, gender faollarini qo'llab-quvvatlash hamda gender stereotiplarini bartaraf etish orqali O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlashning maqsadi davlat siyosatida gender masalalariga ko'proq e'tibor qaratish, uni samaraliroq yuritish imkonini berish, shuningdek, davlat muassasalariga o'z salohiyatini mustahkamlash va gender tenglikni yanada samarali hamda yaqqol ta'minlash uchun chinakam amaliy poydevor yaratib berish hisoblanadi.



Samarqandda «Biz zo‘ravonlikka qarshimiz» mavzusida tadbir o‘tkazildi va mavjud muammolarga aniq yechimlar izlandi

Viloyat hokimi o‘rinbosari, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i Zebiniso Raxmanova joriy yil ayollar ishtirokida sodir etilgan jinoyatlarning aksariyatida tazyiq elementi yaqqol namoyon bo‘lganiga e‘tibor qaratib quyidagilarni ta’kidladi.

Zo‘ravonlik qisqa vaqt ichida o‘zini ko‘rsatadi, tazyiq va zug‘um esa yillar davomida goh oshkor, goh yashirin ko‘rinishda insonni boshi berk ko‘chaga olib kirishi mumkin. Ayolni tinglay bilish, dardiga sherik bo‘lishda gap ko‘p. Bizda bu borada katta kuch bor. Xotin-qizlar faollari, “Oqila ayollar harakati”, maktablardagi psixologlar, rehabilitatsiya markazlari, “Sabr” va “Rahmdillik” markazida yaratilgan sharoit va imkoniyatlardan o‘rinli foydalanish maqsadga muvofiq. Zero, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan asrash burchimizdir.




Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Namangan filialida "Zo'ravonliksiz oila - farovon hayot" mavzusida davra suhbatini o'tkazildi.

Uchrashuvda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish hamda gender tengligiga erishish yo'llari va stereotiplari mavzularida so'z bordi.



Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi raisi Zulayho Mahkamova raisligida Samarqand viloyatida hokim o‘rinbosarlari, xotin-qizlar faollari, “Oqila ayollar harakati” a‘zolari hamda hamkor tashkilotlar, jamoatchilik vakillari ishtirokida yig‘ilish o‘tkazildi, unda viloyat Oila va xotin-qizlar boshqarmasi va uning tuman, shahar bo‘limlari hamda mutasaddilar bilan joriy yilning davomida bajarilgan ishlar tahlil etildi.

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, tibbiyot, bandlik, jamoat tashkilotlari vakillari so‘zga chiqib, xotin-qizlarning turmush sharoitini yaxshilash borasida amalga oshiriliyotgan chora-tadbirlar bo‘yicha batafsil ma‘lumot berishdi.



Ўзбекистон Республикаси Бош вазири ҳамда Ўзбекистон Республикаси Сенати раиси томонидан тасдиқланган “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг маънавияти ва маданиятини юксалтириш, ижтимоий фаолликларини ошириш бўйича Тошкент шаҳар тажрибасини яратиш чора-тадбирлар режаси” ижроси юзасидан амалга оширилган ишларга бағишланган йиғилиш бўлиб ўтди, унда Тошкент шаҳар мутасадди вакиллари ва кенг жамоатчилик иштирок этди.

